



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





SO'Z SAN'ATIGA SADOQAT: BIZ BILGAN VA BILMAGAN SHAHODAT ISAXONOVA

Shodmonova Gulsevar Shodmon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek san'atining beqiyos va nafis vakilasi Shahodat Isaxonovaning bolalik yillari, faoliyati, ijodi haqida so'z yuritiladi, uning hozirgi kungacha bo'lgan qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Maqola san'atkorning muxlislari va ham nasriy ham she'riy asarlar shaydolari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Shahodat Isaxonova, Tolstoy, "Chechaklar ifori", "Sovchilar", Xonzoda begim, "Nodira-yi Davron", Xorazmshohlar, "Sulton Jaloliddin yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika".

"Shahodat opa — ma'naviyatimizning tirik xazinasi. Uning televideniyaedagi chiqishlari o'zbek nutq madaniyatining yuksak namunasi edi. Bugun u kishining shogirdlari tayyorlayotgan ko'rsatuvlarda ham o'sha 'Isaxonova maktabi'ning hidi anqib turadi." deya tahsinga sazovor bo'lgan fikrlarni beradi taniqli jurnalistlardan biri. Shahodat Isaxonova-o'zbek san'at olamida o'zining betakror ovozi, dardli ijrolari va mumtoz an'analarga juda ko'p murojaat qilishi bilan tanilgan iste'dodli yozuvchidir. Uning bolalik yillariga nazar tashlasak, shoira 1951-yil 1-yanvarda Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, Shayxlar qishlog'ida tavallud topgan.

Iste'dodli shoira 1973-yilda Toshkent Davlat universiteti(hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetini tamomlagan. Adiba tarixiy jarayonlarga murojaat qilgan holda "Bibixonim", "Uvaysiy", "Nodira" kabi romanlar, "Ona", "ilinj", "sirli tilak", "intiqom" kabi hajmi kichik, ammo dunyolarcha mazmun-mohiyat, olishimiz zarur bo'lgan saboq beradigan yana bir qancha hikoyalar to'plam ham yozadi. Yozuvchi shunday ta'kidlaydi: "Men nimaga erishgan bo'lsam, jumladan, muvaffaqiyatga, xalqning e'tirofiga hammasiga-kitob orqali erishdim" - deydi, chunki bolalik yillarida u shunchalik kitobga mehr qo'yadiki, maktabga chiqmagan paytda akasi bilan maktabga boradi va kutilganidek, u yerdagi o'qituvchilar uni maktabga kiritishmaydi. Shunda onasi unga Tolstoyning asarini o'qib beradi va shu orqali shoira "Kitob javonimda Tolstoyning barcha o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari mavjud" - deya bolaligini eslaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, shoira jurnalistika fakultetini tamomlagan va shu sohada ko'p yillar faoliyat yuritgan. Uning ovozi shunchalar nafis va shirador ediki, deydi uning shogirdlari: "Ustozimizning ko'rsatuvlarini barcha intiqib, orziqib kutib turishardi, shu bilan birgalikda, o'zining she'rlarini dard bilan o'ziga xos xonish bilan aytardi" deyishadi. Ushbu ijodkorning qalamiga mansub "Chechaklar ifori" to'plami haqida O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim "Shahodatning ovozida bir mung, she'rlarida esa o'ziga xos hayo bor. U jurnalistikada ham, adabiyotda ham ayollik latofatini yo'qotmagan holda so'z ayta oladi. Uning 'Chechaklar ifori' to'plami o'z vaqtida adabiyotimizga yangi bir nafas olib kirgan edi." - deya ta'kidlab o'tadiva to'plamidan bir she'rni misol keltirsak: Sen meni" farishtam" "malikam" deb suy...





Yolg'ondan ertaklar to'qigin rostday.
Madhingdan havolay, ko'kka cho'zay bo'y,
Tollardan egilgan qaddimni rostlab.

Ushbu to'plam 1978-yilda nashr etilgan, bu to'plam ijodkorning dastlabki ijodining mahsuli edi va yaqindagina Toshkentda ushbu to'plamning taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Yaqinda institutimizda Shahodat Isaxonova bilan ajoyib suhbat bo'lib o'tdi. Unda shoira, jurnalist, yozuvchi Shahodat Isaxonova va ularning shogirdlari Hulkar To'manova ham ishtirok etishdi. Bu ijodkor o'ta kamtarin va samimiy inson ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Yana bir kutilmagan ma'lumotni ham bilib oldim, yozuvchining turmush o'rtog'i ham xalq e'tirofidagi ijodkorlardan biri ekan. Ushbu uchrashuvda oltinga teng bo'lgan fikrlar aytiladi, talaba-yoshlar tomonidan adibaning she'rlaridan o'qildi va Shahodat Isaxonova ham shirador ovozi bilan, tengsiz she'rlari orqali bizni bahramand qildi va rag'batlantirish maqsadida barchaga kitoblar to'plamidan sovg'alar ulashildi.

Adibaning ijodida yana bir ya'ni, ko'p hollarda tarixiy shaxslarga murojaat qilish holati kuzatiladi. "Bibixonim", "Uvaysiy", yoki 12 yoshda bo'lgan Xonzoda begim obrazi yoritilgan "Sovchilar" hikoyasini misol keltira olamiz. Barchamizga ma'lumki, juda ko'p ijodkorlar o'z asarlarini tarixiy insonlar bilan bezamaydi, chunki tarix qiyin va uni o'rganish uchun juda ko'p vaqt sarflanadi, ammo, Shahodat Isaxonova tarixni yoritishdan cho'chimadi, u necha yillar davomida har bir voqea-hodisaning, tarixiy shaxslarning etnografiyasini voz kechmasdan o'rgandi va buning mahsuli sifatida hanuzgacha xalqning olqishi va muhabbatiga sazovor bo'lib kelmoqda. O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirov "Tarixiy mavzu — bu otashli maydon. Unga har kim ham botinib kira olmaydi. Shahodat Isaxonovanning 'Nodira-yi Davron' va 'Sulton Jaloliddin' haqidagi izlanishlari shuni ko'rsatadiki, u nafaqat yozuvchi, balki qat'iyatli tadqiqotchi hamdir. U tarixiy faktlarni badiiy bo'yoqlar bilan shunday bezaydiki, kitobxon o'sha davr muhitiga bevosita tushib qoladi." deya muallifga bebaho ta'rif beradi. "Gap isboti bilan deganlaridek" - Shahodat Isaxonovanning birinchi romani "Sulton Jaloliddin yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika" asarida ijodkor Xorazmshohlar davrini aks ettiradi. O'sha davrdagi kiyinish madaniyati saltanatni boshqarish, shu bilan birga, urf - odatlar va marosimlarni o'ziga xos talqin bilan keltiriladi. Yoki boshqa bir misolda, "Nodira-yi Davron" romanida esa Nodira Qo'qon malikasi, Amir Nasrullaxon esa Buxoro amiri. Bu asarda bu ikki qahramon ham bir davrda yashagan va o'sha davrdagi narsa-buyum yoki barcha terminlar bir xonlikda boshqa, ikkinchi xonlikda esa umuman boshqa so'z bilan atalishi haqida asarni yozgan. Filologiya fanlari doktori, professor Rahmon Qo'chqor esa aynan shu asar uchun quyidagicha fikr bildiradi: "Shahodat Isaxonova nasrining kuchi — tafsilotlarda. U kiyim-kechak, urf-odat va qadimiy terminlarni qo'llashda nihoyatda sinchkov. U yozgan asarlarni o'qigan talaba nafaqat badiiy zavq oladi, balki tariximizning etnografik qatlamlarini ham o'rganadi." Shahodat Isaxonova ham ushbu so'zlarimizni tasdig'i sifatida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tarixiy asarlar





nihoyatda murakkab, u asarni muvaffaqiyatli tugatish uchun juda ko'p izlanish kerak" - deydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Shahodat Isaxonova-o'zbek ijod olamida so'zning qadrining teran anglagan, uni ham nasrda, ham nazmda mahorat bilan qo'llay oladigan serqirra ijodkordir. Uning ijodi shunchaki yozishdan iborat emas, balki jamiyatning og'riqli nuqtalarini ko'rsatish va inson ko'nglidagi eng nozik hislarni uyg'otishga qaratilgan. Biz bilgan va bilmagan Shahodat Isaxonova - bu so'zga sadoqat bilan yashayotgan, har bir satrida insoniylik va ma'naviyatni ulug'laydigan ijodkor siymosidir. Uning qalami hali ko'plab kitobxonlar qalbidan munosib o'rin egallashga shubha yo'q. So'zimning intihosi sifatida, ushbu so'zlarni keltirib o'tmoqchiman va maqolamning bosh sarlavhasining nomini ya'ni " So'z san'atiga sadoqat: Biz bilgan va bilmagan Shahodat Isaxonova" nomini nega tanlaganimga aniqlik kiritmoqchiman: yuqorida aytganimdek, ushbu ijodkor bilan bir muddat yuzma-yuz bo'ldim va uning insoniy jihatidan oliyjanob va kamtarin (bu sinonimlarni juda ko'p keltirishimiz mumkin) inson ekanini, ijodiy faoliyatini, birozgina hayot yo'lini bilib oldim. Ammo bu ijodkorda men bilmagan, biz bilmagan son-sanoqsiz ijobiy jihatlar, tanishmagan va ekran yuzini ko'rmagan xoh she'riy xoh nasriy asarlari bo'lsin, shu kabi ma'lumotlar bizga yot ya'ni hali bilmaymiz. Shu sababdan maqolamning bosh sarlavhasi sifatida ushbu haqiqiy gaplarni tanladim. O'ylaymanki, siz va men bu ma'lumotlardan, maqolamdan keyin ijodkor haqida yanada ko'proq tasavvurlarga, axborotlarga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya. Tong bilan uchrashuv. – Toshkent: "Sharq", 2005
2. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 2005.
3. Qo'chqor R. So'z sehri. (Adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami). – Toshkent: "Akadernashr", 2018
4. Isaxonova Sh. Sulton Jaloliddin yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021.
5. Isaxonova Sh. Nodira-yi Davron. (Tarixiy roman). – Toshkent: "Sharq", 2018.
6. Isaxonova Sh. Chechaklar ifori. (She'riy to'plam). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

